

## ZAMONAVIY O‘QITUVCHINING SHAXSIY VA KASBIY FAZILATLARI

Xolmatov Odiljan Adaxamjanovich

**Annotatsiya:** Ushbu maqola zamonaviy o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy fazilatlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Maqolada o‘qituvchining jamiyatdagi o‘rni, uning o‘quvchilarga ta’siri, zamonaviy talablarga javob bera oladigan o‘qituvchiga qo‘yiladigan shaxsiy va kasbiy talablar ko‘rib chiqiladi. O‘qituvchining kasbiy kompetentligi, pedagogik mahorati, axloqiy me’yorlarga rioya qilishi, o‘z ustida ishlashi hamda o‘quvchilar bilan muloqot o‘rnatish qobiliyati kabi masalalar yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy o‘qituvchining shaxsiy fazilatlari, jumladan, sabr-toqat, mehribonlik,adolat, mas’uliyatlilik, ijodkorlik va yangilikka intiluvchanlik kabi jihatlariga ham e’tibor qaratiladi.

**Kalit so’z:** Zamonaviy o‘qituvchi, kasbiy fazilatlar, shaxsiy fazilatlar, pedagogik mahorat, axloq, kompetentlik, ta’lim, o‘quvchi, muloqot, sabr, ijodkorlik, mas’uliyat, bilim, texnologiya, rivojlanish, o‘z ustida ishslash, hurmat.

Bugungi kunda ta’lim tizimi shiddat bilan o‘zgarib, yangi talablarni qo‘ymoqda. Zamonaviy o‘qituvchi nafaqat o‘z fanining bilimdoni, balki o‘quvchilar bilan to‘g‘ri muloqot o‘rnata oladigan, ularni ilhomlantira oladigan, ijodiy fikrlashga o‘rgatadigan, mustaqil ta’lim olishga yo‘naltira oladigan shaxs bo‘lishi kerak. Zamonaviy o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy fazilatlari uning o‘quvchilarga ta’siri, ta’lim sifatini oshirish va jamiyatning rivojlanishiga qo‘shadigan hissasi beqiyosdir. Zamonaviy o‘qituvchi shaxsiy va kasbiy fazilatlari bilan ajralib turishi lozim U o‘z fanini mukammal bilishi pedagogika psixologiya sohalaridan yaxshi xabardor bo‘lishi zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llay olishi zarur O‘qituvchi darsni qiziqarli va samarali tashkil etishi o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim berishi lozim Shuningdek o‘qituvchi o‘quvchilar bilan o‘zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni o‘rnata olishi ularni rag‘batlantira olishi va o‘ziga ishonchini oshirishi muhim.

O‘qituvchining axloqiy fazilatlari ham muhim ahamiyatga ega U adolatli halol intizomli va mas’uliyatli bo‘lishi kerak O‘qituvchi o‘quvchilarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lishi ularning fikrini tinglashi va qadrlashi lozim

Zamonaviy o‘qituvchi doimiy ravishda o‘z ustida ishlashi yangi bilimlarni o‘zlashtirishi va kasbiy mahoratini oshirib borishi zarur U ta’lim sohasidagi yangiliklardan xabardor bo‘lishi va ularni amaliyotga tatbiq etishi lozim O‘qituvchi o‘z xatolarini tan olishi va ularni tuzatishga harakat qilishi o‘z tajribasidan saboq chiqarishi muhim

O‘qituvchining shaxsiy fazilatlari ham uning kasbiy faoliyatida muhim rol o‘ynaydi Sabr-toqat mehribonlikadolatlilik mas’uliyatlilik ijodkorlik va yangilikka intilish kabi fazilatlar o‘qituvchiga o‘z ishini muvaffaqiyatli bajarishga yordam beradi O‘qituvchi o‘quvchilarga namuna bo‘lishi ularni yaxshi fazilatlarga undashi lozim

Zamonaviy o‘qituvchi – bu nafaqat bilim beruvchi balki tarbiyachi maslahatchi va yo‘lboshchidir U o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishi ularning qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berishi va jamiyatga foydali insonlar bo‘lib yetishishiga ko‘maklashishi kerak

O‘qituvchi pedagogik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi ekanligini unutmasligi shart. Shuning uchun kasbiy faoliyatida pedagogik mahoratning bir qator sifatlarini uzluksiz tarkib toptirib borishi zarur.

. O‘qituvchi, eng avvalo, mulohazali, bosiq, har qanday pedagogik vaziyatni to‘g’ri baholay oladigan hamda mustaqil ravishda mavjud ziddiyatlarni bartaraf etishning uddasidan chiqo olishi kerak.

Xulosa qilib aytganda har bir o‘qituvchisi pedagog o‘z faniga ongli yondashishi, metodik bilimlarni samarali q o’llay olishi, yuksak pedagogik tafakkurga ega bo‘lishi lozim.

### **ADABIYOTLAR:**

1. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., va boshq. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob.- Toshkent: Ilm-Ziyo, 2012-y.
2. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., va boshq. Pedagogika (nopedagogik oliy ta’lim muassasalari uchun). - TDPU, 2013-y.
3. Muslimov N., va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. - Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2013-y.
4. Tohirov O’.O. Texnologiya fanini o‘qitish metodikasi. // O‘quv moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. - Toshkent: Toshkent shahar XTXQTMOHM, 2019. -260 b.
5. Sharipov Sh.S., Muslimov N.A. Texnik ijodkorlik va dizayn. // O‘quv qo’llanma. - Toshkent: TDPU, 2011. -166 b.